



O'ZBEKİSTONDA ZAMONAVİY TILSHUNOSLIK: TILLAR TA'LIMI VA TADQIQI



RESPUBLİKA İLMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI TO'PLAMI

2024-yil 26-aprel

MUNDARIJA

1	<i>Ахмедова Хулкар Олимжоновна</i> , ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ – УЧЕБНАЯ ЗАДАЧА И КОМБИНАЦИЯ ПРИЁМОВ	5
2	<i>Абдуллаева Севара Худаёровна</i> , СОВРЕМЕННАЯ ЛИНГВИСТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКОВ И ИХ ИССЛЕДОВАНИЕ	8
3	<i>Абдуллаева Санобар Хамзаевна</i> , ҲАРБИЙ БИЛИМ ЮРТЛАР КУРСАНТЛАРИНИНГ ОҒЗАКИ НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ	11
4	<i>Абдураимова Шахида Миржалиловна</i> , ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВОЕННОСЛУЖАЩИМИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	15
5	<i>Abdurahimova Dilfuzaxon, Ubaydullaeva Aziza</i> , CHET TILLARINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSİYA TEKNOLOGİYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGİK XUSUSIYATLARI	19
6	<i>Abduraximova Marjona</i> , THE ROLE OF FEMALE WRITERS IN ENGLISH LITERATURE	28
7	<i>Abduraximova Marjona</i> , HUMOR AND SATIRE IN W.SHAKESPEARE'S COMEDIES	31
8	<i>Anorboyev Abdulla Abduhakimovich</i> , BO'LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI	33
9	<i>Акбарова Дилором Ахатовна</i> , РЕЗУЛЬТАТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	37
10	<i>Ақрамова Наргиза Сайдрахимовна</i> , МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА: СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ	40
11	<i>Асқарова Шахноза Камолидиновна</i> , "АЛПОМИШ" ДОСТОНИДА ФИТОНИМЛАРНИНГ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	45
13	<i>Asqarova Mushtariy Ravshanjon qizi</i> , THE HISTORY OF ENGLISH LANGUAGE IN TERMS OF SOME WORDS	48
14	<i>Axunov Rustam Narimbaevich</i> , TA'LIMDA INNOVATION VA AGOGIK TEKNOLOGİYALARING O'RNI	52
15	<i>Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna, Jo'rayev Alisher, Maruffjonov Axror</i> , RAQAMLI TEXNOLOGİYALAR ORQALI XORIJİY TILLARNI O'QITISH (METODLAR VA TAVSIYALAR)	56
16	<i>Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna, Abdullayev Azimjon, Egamberdiyev Izzat</i> , CHET TILLARINI O'QITISH METODLARINI DARS JARAYONLARIDA QO'LLASH	59
17	<i>Bakirova A.I., Sotkulova D.O.</i> , MEDIATION SKILLS IN THE ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM	61
18	<i>Воронцова Наталья Владимировна</i> , НЕМЕЦКИЙ ЯЗЫК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ИССЛЕДОВАНИЕ СТАТУСА И ВОПРОСЫ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ	66
19	<i>Эгамназарова Зулхумор Кодировна</i> , ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	71

57	<i>Saparbayeva Dinoraxon Turg'unboy qizi</i> , MUSTAQIL TA'LIM – ZAMONAVIY PEDAGOGIKANTING USTUVOR SHAKLLARIDAN BIRI SIFATIDA	223
58	<i>Sapaeva Durdona, Saitkulova Nazokat Rahmonovna</i> , TIL TA'LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV	226
59	<i>Soatova Malika Sayfitdinovna</i> , HARBIY DISKURSNING KOMMUNIKATIV ASOSLARI PSIXOLINGVISTIKA ASPEKTIDA	230
60	<i>Сулейманова Н.К.</i> , КУРСАНТЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТ ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИ	236
61	<i>Шамудинов Шарафиддин Камалович</i> , ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАГЛЯДНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ	239
62	<i>Turayeva Nigora Nurdinovna</i> , TOPICAL TRENDS OF MODERN LINGUISTICS WITH THE POSITIONS OF THE SYSTEMIC APPROACH	242
63	<i>Turdieva Hulkar</i> , LINGUA-PRAGMATIC COMPARISON OF POLITENESS STRATEGIES IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION (UZBEK, PERSIAN, JAPANESE)	247
64	<i>Tursunboev Shokhzod Dilmurod ugli</i> , ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) IN LEARNING AND TEACHING FOREIGN LANGUAGES	253
65	<i>Ходжисев Р.М.</i> , РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ	257
66	<i>Xoshimov Akmal Sadillayevich</i> , TURK TILSHUNOSLIGIDA ARABCHA VA FORS-ТОЛКСЧА O'ZLASHMALARNING O'RGANILISHI	260
67	<i>Xosilseitova Shakhzoda Foziljon qizi</i> , WOMEN WRITERS IN ENGLISH LITERATURE	264
68	<i>Xosilseitova Shakhzoda Foziljon qizi</i> , LANGSTON HUGHES AND HIS POETRY	267
69	<i>Худайбергенова М.А., Абдулжапаров Шахбоз Музаффар ўғли</i> , ПРЕОДОЛЕНИЕ ТРУДНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	269
70	<i>Yokubova N.N.</i> , THE ROLE OF INDEPENDENCE AND CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN PROFESSIONALLY DIRECTED TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE AT A TECHNICAL UNIVERSITY	274
71	<i>Yuldasheva Nargiza Abdugholiq qizi</i> , THE LINGUADIDACTIC WITH THE INTERACTIVE METHOD	277
72	<i>Юсупова Н.З.</i> , ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ: ТИЛ ЎҚИТИШ УСЛУБЛАРИ МИСОЛИДА	283
73	<i>Odilov Y.R., Raxmatjonova K.A.</i> TIL TIPINI ANIQLASH VA LISONIY UNIVERSALIYALAR	288
74	<i>Ziyadulloyeva Mokhidil Shovkat qizi</i> , RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND SOCIETY	291
75	<i>Zverev Ilya Sergeevich</i> , NATIVE LANGUAGE SKILLS AND FOREIGN LANGUAGE LEARNING: EVIDENCE FROM THE UZBEKISTAN MINISTRY OF DEFENCE	295

- таълимга нисбатан ўқувчида қизиқиш уйғотиш учун тил ўрганиш мұхимлиги ва мақсадға мувофиқлигини унинг онгига сингдириш лозим;
- курсантнинг олдинги қизиқишилари билан ўрганаётган материалнинг боғлиқлиги ҳам мазкур материалга бўлган қизиқишини оширади;
- машғулотда янги маълумотларни ҳаддан ташқари кўп бериш талабанинг тез чарчаши ва янги билимларни қабул қила олмаслигига олиб келади;
- маълумотларнинг камлиги эса ўз навбатида “ахборий очлик” ва зерикишга олиб келади ҳамда жуда ҳам енгил материал ўқишига нисбатан қизиқиши сўндиради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, глобаллашув жараёни кескин тус олаётган айни пайтда, ҳар бир шахс ўз она тилини мукаммал билиш билан қаторда бошқа хорижий тилларни ҳам пухта ўрганмоғи лозим. Шу нуқтаи назардан хорижий тилларни ўрганишни такомиллаштириш, қўллаб-кувватлаш жаҳондаги тараққий этган давлатлар қаторига қўшилаётган мамлактимиз, келажаги буюк ёшлар учун бутун оламнинг барча эшикларини очиш имкониятини бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Сайид Муҳаммад Ҳусайнӣ. “Форс тилини чет элликларга ўқитиш назарияси ва амалиёти”. //А.Қуронбеков таржимаси. Т., 2011.
3. Samareh Y. Persian language teaching. Elementary course. Book 1. 2nd edition. – Tehran, 1990.
4. Жалилов Ж. Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи. 1996.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларни татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.

TIL TIPINI ANIQLASH VA LISONIY UNIVERSALIYALAR

*Yorqinjon Raxmonaliyevich Odilov
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
bo'lim mudiri, filologiya fanlari doktori, professor*

*Raxmatjonova Kamola Abdumutal qizi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Nazariy va amaliy tilshunoslik kafedrasi
katta o'qituvchisi
kamolarahmatjonova@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyo tillari tipini aniqlash va lisoniy universaliyalar haqida so'z boradi. Ayni paytda dunyo tillarining jahonda tutgan o'rni, bu tilda so'zlashuvchilar soni turlichadir. Inson u yoki bu tilda so'zlashganda, so'zlarda moddiy, ya'ni so'zlarning lug'aviy ma'nolarida va nomoddiy, ularning grammatik xodisalari, shakllarida o'xshashlik yoki farq sezadi. Aynan ushbu o'xshashlik va farqli jihatlar asosida tillarda umumiylilik va xususiyilik xodisalari farqlanadi. Maqolani yoritishda o'zbek, rus ingliz va hind tilshunoslik nazariyalariga tayanildi.

Kalit so'z va iboralar: tipologiya, fonetika, grammatika, urg'u, jins kategoriyasi, universaliya.

Annotation. This article discusses the types of world languages and linguistic universals. The place of the world's languages in the world, the number of speakers of this language is different. In one or another language, a person perceives similarities or differences in words, words material, that is, in the dictionary meanings of words and non-materially, grammatical phenomena of documents, in form. It is precisely this similarity and the difference between the phenomena of generality and specificity in languages that can be obtained in a different way. Uzbek, Russian and English, Indian linguistic theories were used in the production of the article.

Key words and phrases: typology, phonetics, grammar, accent, gender category, universality.

Ma'lumki, tipologiya tilshunoslikning muayyan sohasi sifatida tillarni tasnif qilish bilan shug'ullanadi, tipologik tasnifning muhim qonun-qoidalari va usullarini tekshiradi, shuningdek, lisoniy birliklarni biron umumiyligi belgisi asosida tasnif qilish jarayonini ham bajaradi [3. C.487.]

Lingvistik tipologiya – tillar o'rtasidagi genetik munosabatlardan qat'iy nazar, ularning struktur va funksional xususiyatlarini o'rganuvchi lingvistik sohasidir [2. B.496].

Ayni vaqtida qiyoslash yoki chog'ishtirish kerak bo'lgan tillarni faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiy jihatlari ham borki, ular ham lingvistik tipologiyada o'rganiladi. Masalan, fonetik jihatdan o'zbek tilida o', q, g', x kabi unli va undosh tovushlar bor, bunday tovushlar hindiy tilida uchramaydi, biroq hindiy tiliga o'zlashgan so'zlarda aynan mana shu tovushlar ham so'zlar bilan birga o'zlashgan. Qolaversa, o'zbek tilida urg'uning asosan so'z oxiriga tushishi, hindiy tilida esa urg'uning ko'chib yurishi xodisalari tillardagi o'zaro farqli jihatlarni, ya'ni muayyan tilgagina xos bo'lgan xususiylikni ifodalaydi. Shuningdek, rus tilida urg'uning so'z yasashdekk xususiyatga ega ekanligi ham rus tiliga xos xususiyatdir. Masalan, *мука* – ун, *мұқа* – *qayg'u*, *замок* – *qal'a*, *ко́г он*, *замо́к* – *qulf* degan ma'nolarni beradi. Qolaversa, rus tili fonetikasiga xos ы, ү tovushlarning mavjudligi, hindiy tilida esa

kha, gha, dha kabi nafasli undoshlarning borligi ham tillardagi o'zigagina xoslikdan dalolat beradi. Bundan tashqari o'zbek tilidan farqli ravishda rus va hindiy tillarida tilida otlarga xos jins, fe'llarga oid "вид" kategoriyalarining mavjudligi ham ikki til orasidagi o'zaro farqli jihatlarini ko'rsatadi. Demak, lingvistik tipologiya tillardagi faqatgina umumiy jihatlarga emas, balki farqli jihatlariga ham e'tibor beradi.

Masalan, jins kategoriyasi yevropa tillani uchun universal tushuncha, lekin o'zbek tili uchun bu kategoriya xos emas. Umuman olganda, jins kategoriyasi tillarda uchraydigan boshqa grammatik kategoriyalardan farq qiladi. Chunki u hozirgi zamon inson tafakkuri mantig'iga aslo to'g'ri kelmaydi, ya'ni grammatik jins tabiiy biologik jinsga mos tushmaydi. Ma'lumki, tabiiy biologik jins ikkita, grammatik jins esa ko'pchilik tillarda uchtadir. Undan tashqari, tabiatda jins tirik organizmlarga xos jihat, ammo grammatikadagi jins kategoriyasi o'z ichiga jonsiz narsa-predmet va hodisalarni ham oladi. O'zbek tilida bu ma'no leksik-semantik, morfologik va sintaktik usullar bilan ifodalanishi mumkin. Biroq bu vositalarning grammatik jins kategoriyasidan farqi o'zbek tilidagi otlar yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida odam yoki hayvonlarni biologik jinsini aniqlash uchungina qo'llaniladi [1. B.71.] Masalan, leksik-semantik usul *ota-oná, tog'a-xola, o'g'il-qiz*; morfologik usul *Kamol – Kamola, Jamol – Jamola, Feruz – Feruza, shoir – shoira, raqqos – raqqosa*; leksik usul *erkak mushuk – urg'ochi mushuk* kabi.

Biroq o'zbek tiliga jins kategoriyasi mavjud tillardan so'z o'zlashganda qanday bo'lsa shundayligicha o'zlashib qolgan, Biroq bu jins kategoriyasi o'zbek tilida doimiy borligini bildirmaydi. Garchi o'zbek tilida *shoir* degan so'z bo'lsa ham lekin ayol kishiga ham "*O'zbekiston xalq shoiri*" degan unvon beriladi, demak o'zbek tilida shoir degan so'z umumiyydir. Sabab o'zbek tiliga jins kategoriyasi xos emas. Qolaversa, rus yoki hindiy tillaridagi fe'llarga xos "вид" tushunchasi mavjud, ya'ni rus tilidagi barcha fe'lllar '*онпределённый – неопределённый*' shakllarga ega bo'ladi. Aynan mana shuhday hodisalar muayyan tillarning o'zigagina xos bo'lgan jihatni hisoblanadi.

Ko'rindaniki, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bunday o'ziga xoslik tillarni qiyoslab yoki chog'ishtirib o'rganganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Endi bevosita til xususiyatlari emas, tillar orasidagi o'xhash holatlarga to'xtalamiz. Ular tillarga xos universaliyalar deyiladi. Universaliya – lotincha universalis — umumiy degan ma'noni bildirib, O'rta asrlar falsafasidagi termin, umumiy tushunchalar yoki g'oyalarni bildiradi [4]. Internet ma'lumotlariga qaraganda, tillardagi universal jihatlarni aniqlash amerikalik tilshunos J.Gringberg nomi bilan bog'lanadi, u o'zining tillararo tadqiqotlarini, ulardagi o'zaro universal jihatlarni aniqlashni 1960-1970-yillarda amalga oshirgan [4]. Biroq ungacha ham tillardagi umumiy holatlar u yoki bu tarzda tadqiqotlarda ko'rsatilgan. Tipologik

xususiyatlarning muntazamligiga ko'ra, universaliyalarning quyidagi turlari mavjud: mutlaq, soda yoki oddiy universaliyalar.

Mutlaq universaliyalarda – tipologik xususiyat bir vaqtida barcha tillarga xos bo'ladi. Ikki qiyoslanayotgan yoki chog'ishtirilayotgan til bir biriga aynan mos tushadi. Bunday xoslik tanlangan tilning birida aniq, birida noaniq holatda bo'lmaydi. Masalan, hamma tillarda kishilik olmoshlarining mavjudligi. Ularda kishilik olmoshlari uchta shaxsni ko'rsatishi, birlik va ko'plik shakllariga ega ekanligi mutlaq universal hodisadir. Barcha tillar modal ma'noga ega ekanligi, ya'ni biron tilda mavjud so'zning boshqa bir tilda ham ifodalangan so'z aynan shu modal munosabatda kelishi va boshqalar. Bunday universaliyalar leksemalarda yoki gap munosabatlarida ham kelishi mumkin.

Sodda yoki oddiy universaliyalar – bir vaqtning o'zida barcha tillarga xos bo'lmaydi. Masalan, o'zbek va arab tillarida bo'g'iz undoshlarining mavjudligi: *h*, biroq bu aksariyat dunyo tillarida uchramaydi. Demak, bu hodisa barcha tillar uchun xos bo'lmaydi. Balki bir necha tillarni birlashtirib turuvchigina jihat hisoblanadi. Qolaversa, deyarli barcha dunyo tillarida kamida ikkita unli fonema mavjud. Biroq dunyodagi hamma tillar ikki unli fonemali emas. Aksariyat tillarda burun undoshlari bor, lekin barcha tillarda shunday emas. Yoki ularning miqdori ham har xil. Demak, bu xodisada muayyan tilda biron xodisaning umumiy jihatdan bor yoki yo'qligi nazarda tutadi.

Ko'rindaniki, tillarni tipologik o'rganish tanlangan tillarning kelib chiqish va rivojlanishi, struktur, semantic va funksiyaviy holatiga ko'ra bir turga mansub yoki mansub emasligini aniqlash, ular orasidagi o'xhash va farqli jihatlarni topish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.– T.: O'qituvchi, 1992. – B.71.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-tom. – T., 2000. – Б.496
3. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1976. – С.487.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND SOCIETY

*Ziyadulloyeva Mokhidil Shovkat qizi,
Teacher of English Department, "TILAME" NRU, Tashkent, Uzbekistan
mohidilshavkatovna@mail.ru*

Annotation: *The connection between language and society is tightly anchored. The relationship of the two is deeply rooted. Language performs various functions in the society and the society does the same way. If one will not exist, the other one*